

Radioelektron vositalardan noqonuniy foydalanishni aniqlash borasidagi tadbirlar to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrda «Radiochastota spektridan foydalanish sohasida ruxsat etish hamda radioelektron vositalar va yuqori chastotali qurilmalardan foydalanishni tartibga solish to'g'risida»gi 801-son qarori ijrosini ta'minlash borasida Radioelektron vositalar va yuqori chastotali qurilmalarni O'zbekiston Respublikasi hududida sotib olish (berish), sotish va (yoki) o'rnatish (qurish), xorijdan olib kirish va foydalanish tartibiga rioya qilinishi ustidan nazoratni tashkil etishda vazirlik va idoralarning 2023-yil mobaynida o'zaro hamkorlikda nazorat ishlarini tashkil etish bo'yicha chora-tadbirlar rejasiga muvofiq Qoraqalpog'iston Respublikasi Elektromagnit moslashuv xizmati tomonidan respublika hududida noqonuniy faoliyat yuritayotgan radioelektron vositalarni aniqlash bo'yicha doimiy radiomonitoring tadbirlari amalga oshirilib kelinmoqda.



Xususan, o'tkazilayotgan radiomonitoring tadbirlari natijasida joriy yilning o'tgan davri maboyinida Qoraqalpog'iston Respublikasi hududida **51** dona radioelektron vositalardan tegishli ruxsatnomalarsiz foydalanish holatlari aniqlandi. Shulardan bir dona radioelektron vositaga tegishli ruxsatnoma rasmiylashtirildi. Qolgan, hollarda radioelektron vositalarning texnik parametrlari Radiochastotalar bo'yicha Respublika Kengashining tegishli Qarorlari shartlariga to'g'ri kelmaganligi bois ko'rsatmalar berilib radioelektron vositalardan noqonuniy foydalanish to'xtatildi.

Image not found or type unknown

Image not found or type unknown

Image not found or type unknown

Image not found or type unknown



Image not found or type unknown



Shu o'rinda Respublikamiz aholisini, fuqarolarimizni Radiochastota spektridan foydalanish sohasidagi me'yoriy hujjatlar talablariga qat'iy amal qilishlarini so'rab qolamiz. Radiochastota spektridan qonuniy foydalanish yo'nalishidagi barcha ma'lumotlarni markazimizning www.cemc.uz saytidan olishingiz mumkin.